

ANGREN SHAHAR, 39- UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABI ONA TILI VA ADABIYOT FANI
O'QITUVCHISI RO'ZIMATOVA SHAHNOZANING
1 SOATLIK OCHIQ DARS ISHLANMASI



SANA: 2.02. 2016

SINF:8

FAN: ONA TILI

MAVZU: ANIQLOVCHI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

MAQSAD:

- A) Aniqlovchi haqida umumiy ma'lumot berish.
- B) O'quvchilarni madaniy yodgorliklarimizga hurmat ruhida tarbiyalash.
- C) Og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars jihozi: darslik, AKT, tarixiy obidalar rasmlari, rag'bat kartochkalari.

Dars metodi: "Guruhlarda ishlash", "Zinama-zina", "Kim topqir"

Darsning borishi:

I Tashkiliy qism:

A) salomlashish; B) navbatchi axboroti; C) kun mavzusi; D) uy ishi ustida ishlash;

II o'tilgan mavzuni takrorlash

O'tilgan mavzu "Zinama zina" metodi orqali mustahkamlanadi. O'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Har bir guruhdan bir kishi chiqadi. Ularga o'tilgan mavzudan savollar beriladi. Qaysi o'quvchi yettita zinani birinchi bo'lib bosib o'tsa o'sha guruh g'olib bo'ladi.

Savollar:

- 1) Vositali to'ldiruvchi deb nimaga aytiladi?
- 2) Vositali to'ldiruvchi qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
- 3) Vositali to'ldiruvchi qanday Grammatik shakllarda bo'ladi?

4) Kelishik shaklidagi to'ldiruvchidan ko'makchili qurilmali to'ldiruvchilar qanday farq qiladi?

5) Qanday to'ldiruvchi vositasiz to'ldiruvchi deyiladi?

6) Vositali to'ldiruvchilar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

7) Kengaygan birikmali vositasiz to'ldiruvchiga misollar ayting.

8) "Osmon" so'zini vositasiz to'ldiruvchi sifatida qo'llab gap tuzing.

9) "bulut" so'zini vositasiz to'ldiruvchi sifatida qo'llab gap tuzing.

10) "Yomg'ir" so'zini to'ldiruvchi sifatida qo'llab gap tuzing.

Marraga birinchi yetib kelgan o'quvchi rag'bat kartochkasi bilan taqdirlanadi.


II Yangi mavzu bayoni:

203-mashq. Matndagi ajratilgan so'zlarning qaysi so'zga tobelanib kelayotganini ayting, hokim so'zdan tobe so'zga so'roq berib, tobe so'z qanday gap bo'lagi bo'lib kelayotganini ayting

1) **Bizning** maktabimizda "mohir qo'llar" **to'garaging** ishi yaxshi yo'lga qo'yilgan. **Kattatiku** to'garak **ikki** guruhdan iborat. **Birinchi** guruh **chevar** qizlarni birlashtiradi. Unda **oqila** qizlarimiz **tikuvchilik** san'atini, **bichuvchilik** mahoratini, **kashtado'zlik** va **zardo'zlik** sirlarini, **popopchilik** kasbini o'rganadilar. **To'garagimizning ikkinchi** guruhi "Hunarmand yigit" deb ataladi. **Bu** guruhda "**Xattotlik**", "**yog'och o'ymakorligi**" bo'limlari bor. Hozirgi kunda to'garak 124 ta o'gil-qizni birlashtiradi.

Topshiriqqa asosan, ajratilgan so'zlarning qaysi so'zga tobelanib kelayotganligi aniqlanadi, tobe so'z qaysi gap bo'lagi bo'lib kelayotganligi aniqlanadi.

Yangi mavzu **klaster** usuli orqali tushuntiriladi.



Aniqllovchi narsa- buyumning rang-tusi'mazasi, hajmi, kim yo nimaga qarashlilikini bildiradi. Aniqllovchi ega, ot kesim va holga bog'lanadi. Bahaybat samolyot(ega) yerga qo'ndi. Salimjon—a'lochi o'quvchi.(ot kesim)



Yangi binolar qishloqning husniga husn qo'shmoqda.

IV Mustahkamlash

204-mashq. berilgan gaplardagi aniqllovchilar topilib, bog'langan so'z bilan ko'chiriladi. Ushbu mashq "Guruhlarda ishlash" usuli asosida o'tkaziladi. Har bir guruhdan o'quvchilar navbatma-navbat doskada bajarishadi. Tez va to'g'ri bajargan guruhlar aniqlanib, rag'batlantiriladi.

1. Soyning tagi, ko'm-ko'k suv; 2) bu yilgi bahor, ko'plarning tinka-madori; 3) shu payt, ship-ship qadam; 4) yaxshi o'g'il, yomon o'g'il; 5) po'lat sandiq; 6) bu yil, tog'-tog' paxta; 7) bir kishi, ming kishi; 8) kumush qish, zumrad bahor, kuzning ziynati;

205-mashq. Darslikda berilgan rasm kuzatiladi. AKTda O'zbekistonning naqshinkor binolari namoyish etiladi. "O'zbekistonning naqshinkor tarixiy inshootlari" mavzusida insho yoziladi. Inshoda aniqllovchilar turiga ko'ra belgilanadi. Eng yaxshi insho muallifi aniqlanib, o'sha guruh rag'batlantiriladi.

Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash. Har bir guruhdan past o'zlashtiruvchi o'quvchilardan taklif etilib, "Kim topqir?" o'yini o'tkaziladi. Ularga navbati bilan savol beriladi. Eng ko'p ball to'plagan guruh rag'batlantiriladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

- 1) Aniqllovchi deb qanday gap bo'lagiga aytiladi?
- 2) Aniqlanmish nima?

3)Aniqlovchi qaysi gap bo'lagiga bog'lanib keladi?

4)Sifatlovchi aniqlovchi nima?

5)Qaratqichli aniqlovchi nima?

6)Qaratqichli aniqlovchiga misol keltiring.

V.O'quvchilarni baholash.

Guruh o'quvchilari to'plagan ballar yig'ilib, jamlanadi. Eng ko'p ball to'plagan guruh aniqlanib, olqishlanadi.Ularga yurtimiz obidalari surati taqdim etiladi . har bir guruhda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. O'quvchilar baholari e'lon qilinadi.

VI. Uyga vazifa: 206-mashq. Yaqin do'stingiz yaxshi xislatlarini namoyon qiluvchi kichik matn tuzilib, aniqlovchilar belgilanadi.